

«AVESTO» VA ZARDUSHTIYLIK DINI HAQIDA

Rustamov Salohiddin Suxrobzoda

SamDU tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: prof. Saidov Ilhomjon

Annotation

When talking about the religion of Zoroastrianism and its holy book "Avesta", it should be noted that there are a number of controversial opinions on this subject in science, that is, when and where the representative of Zoroastrianism was born, where Zoroastrianism arose and There are different views in science about its chronological period, as well as in what language the Avesta came down to us. After 2.5-3 thousand years have passed, when we express an opinion about this doctrine and book, no doubt, every researcher works on the basis of the information he has. Depending on when and by whom these information were written, in which language and script, it is unrealistic to associate them with that language and that time. Let's not forget that we have the right to express our opinion objectively, and the solution is not one, but a comparison of many opposing opinions.

Key words: "Fire", "Sun", "Nur", "Rushnolik", "Zoroastrianism", "Manuscripts from past centuries", "History of Tabari", sage, astrologer, "Muloqot" magazine.

Аннотация

Говоря о религии зороастризм и его священной книге «Авеста», следует отметить наличие в науке ряда противоречивых мнений на этот счет, то есть когда и где родился представитель зороастризма, где возник зороастризм и В науке существуют разные взгляды на ее хронологический период, а также на то, на каком языке дошла до нас Авеста. По прошествии 2,5-3 тысяч лет, когда мы высказываем мнение об этом учении и книге, несомненно, каждый исследователь работает на основе имеющейся у него информации. В

зависимости от того, когда и кем были написаны эти сведения, на каком языке и какой письменности связать их с тем языком и тем временем нереально. Не будем забывать, что мы имеем право объективно выражать свое мнение, и решение не одно, а сравнение множества противоположных мнений.

Ключевые слова: «Огонь», «Солнце», «Нур», «Рушнолик», «Зороастризм», «Рукописи прошлых веков», «История Табари», мудрец, астролог, журнал «Мулокот».

KIRISH

Zardushtiylik dini haqida va uning muqaddas kitobi «Avesto» haqida gap ketganda shuni nazarda tutish kerakki, fanda bu mavzuga doir bir qancha munozarali fikrlar mavjud, ya'ni Zardushtning qaysi millat vakili qachon va qayerda tug'ilganligi, zardushtiylik dinining qayerda paydo bo'lganligi va uning xronologik davri, shuningdek «Avesto»ning qanday holatda bizga yetib kelganligi qaysi tilda bitilganligi haqida fanda xilma – xil qarashlar bor. Oradan 2,5 – 3 ming yil o'tganidan keyin bu ta'limot va kitob haqida fikr bildirar ekanmiz, shubhasiz, har bir tadqiqotchi qo'liga tushgan ma'lumot asosida ish ko'radi. Bu ma'lumotlarning qachon va kim tomonidan, qaysi til va xatda yozilganligiga qarab ularni o'sha til va o'sha zamon bilan bog'lab qo'yish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Shu o'rinda yechimni bitta emas, ko'p bo'lgan qarama – qarshi fikrlarni taqqoslashda va o'z fikrimizni xolisona bildirishga haqli ekanligimizni unutmaylik. Dastlab Zardushtning qachon va qayerda tug'ilganligini ko'rib o'tadigan bo'lsak hozirga qadar yaratilgan ba'zi tadqiqotlar, asarlar, yozilgan kitoblarda Zardusht va u yaratgan din «majusiylik», otashparastlik deb no'to'g'ri talqin etib kelindi. «Denkard» va boshqa pahlaviy tilidagi kitoblarda Zardushtning ismi «Madurta» shaklida zikr etilgan. Bu yodgorliklar arab tiliga tarjima qilinganda, Zardusht «Majus», targ'ib qilgan dini «Majusiy» deb atalgan. «Otash», «Quyosh», «Nur», «Rushnolik» zardushtiylik dinining ramziy timsollari bo'lsa-da, lekin zardushtiylik hech qachon quyosh va olovga sig'ingan emas, faqatgina ularni muqaddas bilganlar

holos. A. Ashirovning bergan ma'lumotiga ko'ra Zardusht eramizdan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning birinchi yarmida faoliyat yuritgan.¹

ASOSIY QISM

Miloddan avvalgi V-IV asrdagi qadimgi yunon olimlarining asarlarida ilk bor Zardushtning nomi uchraydi. Yunonlar uni Zoroastr va Zoroastera, u asos solgan dinni esa «Zoroastrizm» nomi bilan yuritishgan. Zardusht Spitama qavmidan (sug'diycha Soitamén nomi ham shundan kelib chiqqan bo'lsa kerak – P.S.) bo'lib otasini – Purushasp, onasini – Dug'dava deb ataganlar. Spitama qavmi afsonaviy urug' bo'lmasdan balki tarixda bo'lganligi nafaqat «Avesto»da balki qadimgi yunon va forsiy manbalarda ham zikr etilgan. Zardushtning tarjimai holi to'g'risidagi ma'lumotni qo'lyozma manbalar orasida Beruniyning «O'tmish asrlardan qolgan yodgorliklar» asari va Tabariyning «Tarixi Tabariy» asari alohida ahamiyatga egadir. Bu kitoblarda Zardushtning hayot yo'lini ko'rsatuvchi ayrim lavhalar mavjud. Beruniyning xabar berishicha Zardusht asli Ozarbayjondan bo'lib, keyinchalik Eron va O'rta Osiyoda hayot kechirgan. Xuddi shunday ma'lumotni ya'ni Zardushtning qadimgi Eronning shimoli – g'arbida joylashgan Ozarbayjonda ko'p yillar yashaganligi to'g'risidagi ma'lumotni Meri Boys ham beradi. Lekin Meri Boys keyinchalik bu fikrdan voz kechadi, chunki zardushtiylik gimnlari asosida olib borilgan izlanishlariga tayangan holda haqiqatdan ham Zardushtning O'rta Osiyo hududida yashaganligini ishonch bilan takidlab o'tadi.² Bunday bahsli mavzuga V.A.Livshits ham qo'shiladi va o'z fikrini bildiradi. Olimning ma'lumotiga qaraganda Zardushtning vatani, millati, hayot faoliyati aniq isbotlangan bo'lmasada, lekin Zardushtning nomi qadimgi eronliklarning nomi ekanligini aniq aytadi. V.A.Livshits Zardushtning nomini qadimgi Eron tiliga o'girganda «qari tuya egasi» degan ma'noni berishini aytib o'tadi.³ V. A. Livshits yozishicha, ruhoniylar Zardushtni eng qadimgi diniy tasavvurlarni isloh qilgan shaxs sifatida maydonga

¹ A. Ashirov. O'zbek xalqi turmush tarzida zardushtiylik izlari. (O'zbekiston tarixi jurnali. 2001-yil. 4-bet)

² Мэри Бойс. Зороастрийцы. Изд. Наука. М. 1987 г. 3 стр.

³ Авеста. Избранные гимны. перевод с авестийского и комментарии проф. И. М. Стеблеин – Каменского. Душанбе Адиб 1990 г. 3стр.

chiqadi. Uning yashagan vaqti, vatani va qayerda o'z ta'limotini targ'ib qilganligi munozarali bo'lsa – da, uning afsonaviy shaxs emas, balki real inson bo'lganligida hech qanday shubha yo'q. Yevropada Zaradushtra ta'limotining «Zoroastr» – zoroastrizm shaklida yoyilib ketishiga sabab shuki bu ism yunon tilidagi «Astron» (yulduz) so'ziga o'xshashligidadir. Qadimgi rivoyat va manbalarda Zaradushtra – donishmand, astrolog sifatida qayd etilib, uning ta'limoti G'arbga tomon tarqalgach «zoroastrizm» tarzida talqin eta boshlangan. Zardushtning nomini tahlil etgan yana bir tarixchi G'. Xo'janoyozov o'zining «Zardusht qadami tekkan tuproq» nomli maqolasida zardushtiylik dinining xronologik vaqtini eramizdan oldingi VI asrdan boshlab toki arablar istilosi va islom dinining kirib kelishi davri, ya'ni eramizning VII asrigacha ya'ni qariyb 1300 yil O'rta Osiyo xalqlarining dini bo'lib kelganligini aytib o'tadi. Dinning asoschisi Zardusht nomining ma'nosi esa, V. A. Livshitsdan farqli o'laroq G. Xo'janoyozov «Oltin junli tuyalari bor odam» deb izohlaydi. Olim «Zardushtni Kaspiy va Orol dengizi oralig'da yashagan, Qadimiy Xoraz diyori esa zardushtilik gullab yashnagan makon bo'lgan» – degan ma'lumotlarni ham beradi.⁴ Xuddi shunday Zardushtning nomi haqidagi ma'lumotni R. Berdiyev ham beradi. Zardusht nomi fors tilidan kelib chiqqan bo'lib, «zar» – oltin, yoki «zard» – sariq , «ushtra» – tuya degan ma'noda, ya'ni sariq tuya yoki oltin tuya egasi degan ma'noni beradi deb izohlaydi R. Berdiyev.⁵ Zaradushtra aslida qadimda Dantiya – Amudaryo bo'ylarida yashagan Spitama urug'idan bo'lgan deb takidlaydi- M. Ishoqov.⁶

Shunga o'xshash ma'lumotni H. Homidiy va B. Do'schonovlar ham beradi, ya'ni VII asr oxirlarida Sharqda birinchi shoir, voiz, din va jamoat peshvosi – Zardusht eramizdan oldingi 628 – yili Xorazmning Spitama urug'i boshlig'i Prushasp xonadonida dunyoga kelganligini aytib o'tadilar. Zardushtning tug'ilgan yili haqida ham bir nechta taxminlar bor. Xususan taniqli faylasuf olim I. Karimov «Muloqot» jurnalining 1992 – yil 11-12 – sonlarida chop etilgan, «Zardushtiylik

4 G'. Xo'janoyozov. Zardusht qadami tekkan tuproq. (Savdogar gazetasi 2001 yil. N37 28-sentabr).

5 R. Berdiyev Fan tarixi. Maruzalar matni. Samarqand 2003 – yil 28-bet.

6 Avesto Yasht kitobi. M. Ishoqov tarjimasi. „ Sharq “ nashriyoti. Toshkent. 2001-yil 3-bet.

haqida haqiqat» maqolasida Zardushtning miloddan avvalgi 589 – 512 yillarda, ya’ni bundan 2600 yil muqaddam yashab o‘tganligini R. Berdiyev ham izohlaydi. Zardusht tug‘ilgan yilning yana bir boshqa variantiga to‘xtalamiz. Toshkentda «Universitet» nashriyotida 1997 – yil chop etilgan «O‘zbekiston tarixi» kitobi mualliflari «Beruniy Zardushtning tug‘ilgan yilini Makedoniyalik Iskandardan 258 yil oldin edi deb belgilaydi» deya e’tirof etadilar va bu fikrni «Zardushtra miloddan avvalgi 553 – 541 yillar atrofida 77 yoshida vafot etgan ” deb davom ettiradilar.

T. Maxmudovning bergan ma’lumotiga ko‘ra, bazi manbalarda Zaradushtra qadimgi Rey, ya’ni Midiyada tug‘ilgan deb, boshqa olimlar uni Balxda tavallud topgan deb yozadilar. Ye. Bertels ko‘pchilik olimlarning Zaradushtra eramizdan avvalgi 569 – yili tug‘ilgan degan fikriga haqli e’tiroz bildiradi. «Bizning fikrimizcha, Zaradushtra faoliyatini eramizdan oldingi ikki minginchi yillarning oxirida deb bilgan maqulroq. Chunki agar gatlar tarixiy Zaradushtra tomonidan yaratilgan desak, «Avesto» ning eng qadimgi qismlarini ana shu davr bilan izohlash tog‘riroq bo‘ladi deb fikr bildiradi T. Maxmudov.⁷ M. Ishoqovning ma’lumotiga ko‘ra bir qator olimlarning fikricha, Zardusht miloddan avvalgi XIII - -XII asrlarda yashagan tarixiy shaxs deb fikr bildiradi. Uni mil. avv. VII – VI asrlarda yashagan deguvchilar ham bor. Zardushtiy dinining xos adabiyotida Zardusht 6000 yil ilgari ham yashagan deyiladi. Zardushtning tug‘ilgan yilini yunon faylasuflarining fikriga ko‘ra izohlaydigan bo‘lsak, yunon tarixchisi Plutarx Zaradushtra Troya urushidan 600 yil oldin tug‘ilgan deb takidlaydi. Agar Troya urushi milodiy eradan 1200 yil ilgari ro‘y berganini nazarda tutsak, Zardusht yashagan davr bugungi kundan 9 ming yil oldin bo‘lib chiqadi. Aristotel Zardusht vafotini Platon (mil. avv. 428 – 348) vafotidan 6 yil ilgari bo‘lgan deb hisoblaydilar. Zardushtiylik dini va uning tarixini jiddiy o‘rgangan olim Meri Boys bu dinnig shakllanish davrini milodiy eradan ilgarigi XIV – XII asrlarga taaluqli deb topadi. Qator olimlar Zardusht payg‘ambarlik e’lon qilgan davrni milodiy eradan oldingi VII asrga oid deydi. Zardusht faoliyat yuritgan davr va u asos solgan dinning davrini tarixchi olim M.

⁷ T. Maxmudov. Avesto haqida. Toshkent . ., Sharq “ nashriyoti 2000 yil 21- bet.

Ishoqov mil. avv. VII –VI asrlar deb hisoblasa, B. Iskandarov ham mil. avv. VI asrdan to milodiy III asrgacha O‘rat Osiyoda zardushtiylik va u bilan bog‘liq bo‘lgan dualistik dunyoqarash hukmronlik qilgan edi deydi.⁸ Zardusht qachon yashagan ? Bu masalada bizning mil. avv. II ming yillik – o‘lkamizda bronza asri gullab yashagan sug‘orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik, tashkiliy xo‘jalik turlari sifatida muqim rivojlangan jamiyatda hokimlar, kohinlar, harbiylar hunar ahli, chorvador dehqon kabi mehnat taqsimoti va ijtimoiy tabaqalnish chuqurlashgan davr zardushtiylik yaxlit tizim sifatida shakllangan davr deyishga to‘la asos bor. Xuddi shunday ma‘lumotni M. Isomiddinov ham «Ilk zardushtiylik davri va Samarqand» nomli maqolasida aytib o‘tadi. Zardushtilikning kelib chiqishi to‘g‘risida juda ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini bildirishib ularning eng mashhurlaridan biri Meri Boys eng dastlabki zardushtiylik to‘g‘risida ma‘lumotlar yozishni boshlaganidan bu olimning o‘zi qarib qolgan edi deydi.” Yoki zardushtiylik dinida shunday an‘analar o‘z aksini topganki ular o‘zining ildizlari bilan juda qadim zamonlarga hatto bronza davri an‘analariga borib tarqalishini aytadi. Uning fikricha ilk zardushtiylik dastlab chorvador bo‘lishib Volga daryosidan sharqdagi keng yaylovlarda ko‘chib yurishgan. Meri Boysning fikriga ko‘ra aynan shu davrda ya‘ni jahonda hamma narsani qonun emas, balki zo‘rluk zo‘ravonlik boshqargan bir paytda payg‘ambar Zaradushtra yashagan deydi. Shu o‘rinda yana bir maqolaga nazar tashlaymiz. O‘zbekistonning turli qadimiy yodgorliklaridan topilgan mil. avv. IX – VIII va VII – VI asrlarga oid arxeologik topilmalar diqqatga sazovordir. Tarixiy arxeologik davrlashtirish nuqtai nazaridan ushbu davr bronza davridan temir asriga o‘tish va O‘rta Osiyo tarixida ilk temir asrining boshlanishi bilan bog‘liqdir. Ayni shu davrda og‘zaki matnlar asosida «Avesto»ning eng qadimgi qismlari shakllangan. Bu davr zardushtiylikkacha, shuningdek ilk zardushtiylik diniy marosimlari davri edi. Mavzuni yaratishda zardushtiylikning davrlashtirish baxslaridan tashqari asl, dinnig asl vatanini topish

⁸ B. Iskandarov O‘rat Osiyoda falsafiy va ijtimoiy – siyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. T. 1993 – yil. 6 – bet.

ham muammo bo‘lib kelmoqda. Zardushtiylik dini paydo bo‘lgan zamin haqidagi bahs uzoq yillardan buyon davom etib kelmoqda. Bazilar zardushtiylik dinini Midiyada paydo bo‘lgan desalar, ayrimlari uni Eronda vujudga kelgan deb isbotlashga harakat qiladilar. Zardushtiylikning vatani Eron deb hisoblovchi olimlardan biri E. Bezzining fikricha, zardushtiylik dini «Hind Eron qabilasi dinidan kelib chiqqan». G‘arb olimlaridan A. Meyu va P. Tedeskular zardushtiylikning vatani Parfiya (hozirgi Turkmaniston) degan farazni bildiradilar. Daristeren, Jeksonlar zardushtiylik Midiyada paydo bo‘lgan deydilar. I. Markvar, B. To‘rayev, X. Nyuber, E. Benvenist, Ye. Bertels, Gayyer, Bartold singari olimlarning fikriga qaraganda zardushtiylik Baqtriyada paydo bo‘lgan va keyinchlik Eron va Midiyaga tarqalgan deydilar. E. Gersfeld o‘zining dastlabki arxeologik qazishma ishlariga binoan hamda V.V.Struve, Yu.Popopart, S.F.Oldenburg, N.Proxorov, M.Boys, I.M.Dyakonov, V.V.Bartold, V.M.Lukanin, B.Avdiyev singari olimlarning fikricha zardushtiylik Turonzamin – Xorazm, Baqtriya, Sug‘d, Farg‘onada paydo bo‘lib, so‘ngra Eron va boshqa hududlarga tarqalgan. Zardushtiylik O‘rta Osiyoda kelib chiqqanligi ko‘proq haqiqatga yaqin. Chunki bu haqda «Avesto» sahifalarida bir muncha dalillar ham keltirilgan: («Avesto»da Zardusht tug‘ilgan va o‘z faoliyatini boshlagan joy Skiflar o‘lkasi), Mauri, (Marv), Gava, Sug‘da, Xorazm kabi mamlakatlardan o‘tuvchi katta daryo atrofi ekanligi bayon etiladi. Hattoki u hozirgi Xorazm hududida tug‘ilib o‘z faoliyatini boshlagan degan taxminlar ham yo‘q emas.⁹ A. O. Mokovelskiy ham shu fikrga qo‘shilishga moyildir. Bu guruh olimlar zardushtiylik dininig muqaddas kitobi «Avesto» da yakkayu – yagona xudo – Axura Mazda yaratgan 16 mamlakatning nomi berilgan. Bu mamlakatlardan ikkitasi afsonaviy bo‘lsa, to‘qqistasi Markaziy Osiyoga tegishli bo‘lgan viloyat va shaharlardir. Qolgan beshtasi Hindiston, Ozarbayjon, Armaniston hududlariga qarashlidir. Zardushtiylik dini haqida fundamental tadqiqotlar muallifi Meri Boys uning bundan 3500 yillar ilgari Osiyo cho‘llari zaminda paydo bo‘lgani va boshqa

⁹ B. Iskandarov O‘rat Osiyoda falsafiy va ijtimoiy – siyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. T. 1993 – yil. 6 – bet.

dinlarning shakllanishi va rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siridan tashqari olijanob din ekanligini asrlar mobaynida quvg'inlikka uchrasada, unga e'tiqod qo'yganlar sayi harakati tufayli bizgacha yetib kelganligini takidlaydi. Zardushtiylik bo'yicha 4 tomlik asar muallifi Meri Boys ham otashparastlar dinining muqaddas kitobi «Avesto» qadimgi Xorazm vohasida paydo bo'lganini qayd etadi.¹⁰ Zardushtiylik ta'limoti va «Avesto» ning Xorazmda paydo bo'lganligi haqidagi faraz B. G'afurov, H. Mallayev, H. Hamidov, A. Qayumov, Y. Jumaboyev, M. Ishoqov, M. Rahmonov, F. Sulaymonova, I. Jabborov, G. Dresvyanskaya, Y. Xo'jamurodov, A. Irisov, M. Qodirov, S. Hasanovlarning maqola va tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.

XULOSA

«Avesto» madaniyatining shakllanishi mil. avv. VIII – VII asrlarda yakunlangan va balki shu davrlarda yozma matnga ko'chgan bo'lsa, ajab emas. Bizning mintaqada davlatchilikning ham yuzaga kelishi ushbu davrda yuz bergan bo'lib, «Avesto» matnlarida ilk davlatchilikka oid atamalar va tushunchalar uchrashi bejiz emas. «Avesto» kitobining to'liq shakllanish davri bo'lgan bronza asri boshlarida asosan ilk shahar – davlatlar mavjud edi.»Avesto» nafaqat bronza davri, balki tosh asri ma'naviyati unsurlarini ham o'zida aks ettirgan. «Avesto»ga ko'ra ajdodlarimizning ma'naviy kamolotining birinchi bosqichi - tosh asriga ishora, deb qabul qilish joizdir. Fanda Zardushtning yashagan davri va zardushtiylikning qaysi davrga oid ekanligi haqida fikrlarning turli xilligi va ushbu mavzu yuzasidan ko'pgina olimlarning ilmiy ish olib borganligi bizni quvontiradi. Tadqiqotchilarning fikrlari turli xil bo'lsada, lekin biz shuni qat'iy ayta olamizki, ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra zardushtiylik dini bundan taxminan 3000 yil aniqrog'i 2700 yil muqaddam vujudga kelganligiga shubha yo'qdir.

¹⁰ T. Maxmudov. Avesto haqida . T. ., Sharq" 2000-yil 8-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirov A. O'zbek xalqi turmush tarzida zardushtiylik izlari. (O'zbekiston tarixi jurnali. 2001-yil. 4-bet).
2. Avesto Yasht kitobi. M. Ishoqov tarjimasini „ Sharq “ nashriyoti. Toshkent. 2001-yil
3. Авеста. Избранные гимны. перевод с авестийского и комментарии проф. И. М. Стеблейн – Каменского. Душанбе Адиб 1990 г.
4. B. Iskandarov O'rat Osiyoda falsafiy va ijtimoiy – siyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. T. 1993 – yil.
5. G'. Xo'janoyozov. Zardusht qadami tekkan tuproq. (Savdogar gazetasi 2001 yil. N37 28-sentabr).
6. M. Imomnazarov „ Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari “ Toshkent. „ Sharq “ nashriyoti 1996 – yil 103-104 betlar.
7. M. Isomiddinov. Ilk zardushtiylik davri va Samarqand. (O'zbekiston tarixi jurnali. 2001-yil 3-son.)
8. R. Berdiyev Fan tarixi. Maruzalar matni. Samarqand 2003 – yil
9. Sagdullayev A. Avestoning ilk diniy marosimlarini o'rganishda arxeologik ma'lumotlar. (O'zbekiston tarixi jurnali 2001 yil 3-son)
10. Sh. Karimov. R. Shamsutdinov. Vatan tarixi. Toshkent. „ O'qituvchi, 1997.
11. T. Maxmudov. Avesto haqida . T. „ Sharq” 2000-yil.
12. Мэри Бойс. Зороастрийцы. Изд. Наука. М. 1987 г.